IQRO JURNALI / 2023
GUVOHNOMA № 060680
E-ISSN : 2181-4341

VOL–2, ISSUE–1
https://wordlyknowledge.uz/

NAVOIY VILOYATIDA TA'LIM TIZIMI

Yo'ldosheva Madinabonu Ulug'bek qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tarix fakulteti 2-bosqich talabasi

Annonatsiya: Mazkur maqolada ta'lim tizimi sohasidagi islohotlar,Navoiy viloyati hududidagi maktabgacha ta'lim va maktab ta'lim tizimining strukturaviy yulga quyilganligi,maktab va pedagogik xodimlar soni , kasbiy mahorati va salohiyati,oliy ta'lim sohasidagi yutuqlar haqida ma'lumot berilgan.

Kalit sõzlar: Sifatli ta'lim, umumta'lim muassasalari,barkamol avlod markazlari,bolalar kutubxonasi,MTT,pedagogik xodimlar, oliy toifali,xorijiy sertifikatlar, oliy ta'lim.

Yangi O'zbekistonda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish, uni xalqaro standartlarga integratsiyalash, mehnat bozori talabiga mos malakali kadrlar tayyorlash hamda Uchinchi Renessans g'oyasini ro'yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish maqsadida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotisiz tasavvur etib bo'lmaydi, insoniyat fan o'qi atrofida aylanayotgandek go'yo. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir.

Ta'lim sohasini tubdan takomillashtirish,farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashi, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash, ularning qobiliyat va iste'dodi, intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Mamlakatimiz taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatni safarbar etishga qodir bo'lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish – biz uchun muhim masaladir"**[1].**

Aynan 2022-yil 20-dekabrda Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasida ham 2023-yilni «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim»yili deb nomlaganliklari yana bir karra bu sohaning õsishiga olib keldi **[2].**

Xususan, Respublikada ta'lim sohasi buyicha yuqori natijalarni egallab kelayotgan Navoiy viloyatida ham xalq ta'limi sohasida samaralari ishlar olib borilmoqda.Hududda ta'lim sifatini oshirish,malakali kadrlarni yetishtirish,õquvchilar orasida fanlar tizimini maxsus tizimga solish,oliy ta'lim sohasidagi bakalavr talabalar sonini kengaytirish buyicha tizimli islohotlar yõlga qõyildi.

Biz bugun«Yangi Õzbekiston maktab ostonasidan boshlanadi»de-gan uluğ ğoya asosida Navoiy viloyatida ham maktab ta'limini umummilliy harakatga aylantirish buyicha yangi bosqichga kõtarilmoqda.Viloyatda mutlaqo yangicha mazmun va shakldagi zamonaviy ixtisoslashtirilgan maktablar tizimini yaratish buyicha davlat dasturlari ishlab chiqilmoqda.

Bugungi kunda viloyat hududida 364ta umumta'lim muassasalari,3ta maxsus internati,11 ta barkamol avlod markazlari,1 ta bolalar kutubxonasi faoliya kõrsatmoqda **[3].**

Birgina yillar kesimida va sohalar bõğinida tahlil qiladigan bõlsak,Navoiy viloyatida 2010-yilda 157 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti bõlgan bulsa,2021-yilga kelib esa 285taga kõpaydi.Tumanlar kesimida:2010-yilda Navoiy shahrida 35ta,Zarafshon shahrida 18 ta,Karmana tumanida 15ta,Konimex tumanida 5ta,Qiziltepa tumanida 16ta,Navbahor tumanida 10ta,Nurota tumanida 20ta,Tomdi tumanida 9ta, Uchquduq tumanida 16 ta,Xatirchi tumanida 13 tani tashkil etgan.Ushbu kõrsatkich,2021-yilga kelib,Navoiy shahrida 44ta,Zarafshon shahrida 21ta,Ĝozĝon shahrida 4 ta,Karmana tumanida 42ta,Konimex tumanida 15ta,Qiziltepa tumanida 45ta,Navbahor tumanida 28ta,Nurota tumanida 23ta, Uchquduq tumanida 17ta,Xatirchi tumanida esa 34 tani tashkil etib,bu samaradorlik 2010-yilga nisbatan bir necha marotaba oshganligini kõrsatadi.

Ushbu maktabgacha ta'lim tashkilotida ta'lim olayotgan tarbiyalanuvchilar soni 2021-yilda Navoiy viloyatida 45588 ming nafar ,Navoiy shahrida 10955 ming nafar, Zarafshon shahrida 6498 ming nafar,Ĝozĝon shahrida 558 ming nafar,Karmana tumanida 5855 ming nafar, Konimex tumanida 1721 ming nafar, Qiziltepa tumanida 5359 ming nafar, Navbahor tumanida 3545 ming nafar, Nurota tumanida 2971 ming nafar,Tomdi tumanida 441 ming nafar, Uchquduq tumanida 3015 ming nafar,Xatirchi tumanida 4670 ming nafar bolalarni tashkil etgan **[4;1].**

Pedagog xodimlar soni ham yaxshilandi,aynan ta'limning bu bõğiniga ham malakali ,oliy ma'lumotli,chet tillarini yaxshi biladigan,kõp yillik tajribaga ega kadrlar õrin egallay boshladi.Aynan 2010-yil bu sohada faoliyat kõrsatgan pedagogik xodimlar soni 2500 nafarni tashkil etgan bõlsa,2021-yilga kelib esa 4396nafarga kõpayganligini kõrishimiz mumkin.Hududlar kesimida:2021-yilda Navoiy shahrida 1143 nafar ,Zarafshon shahrida 577nafar,Ĝozĝon shahrida 61nafar,Karmana tumanida 576 nafar,Konimex tumanida 179nafar,Qiziltepa tumanida 534 nafar,Navbahor tumanida 309 nafar,Nurota tumanida 289 nafar, Uchquduq tumanida 302 nafar,Xatirchi tumanida esa 381 nafar pedagogik xodimlar tashkil etgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek:«Yangi Õzbekiston-maktab ostonasidan,ta'lim-tarbiya tizimidan boshlanadi».Shy sababli viloyat hududida maktab ta'limi sohasi bõyicha qator islohotlar amalga oshirilmoqda.Birinchi õrinda ta'lim sifatini oshirish uchun õquvchilar uchun qulay sharoit,zamon talablariga javob beruvchi sinfxonalar va jihozlar bulmoği kerak va bu ishlar samarali yõlga qõyilgan.Bugungi kunda Viloyat hududida 364 ta umumta'lim muassasalari faoliyat kõrsatmoqda.Navoiy shahrida 2021-2022 õquv yilida 25ta,Zarafshon shahrida 13ta,Ĝozĝon shahrida 3 ta,Karmana tumanida 32ta,Konimex tumanida 37ta,Qiziltepa tumanida 44ta,Navbahor tumanida 37ta,Nurota tumanida 54ta, Konimex tumanida 17ta,Uchquduq tumanida 19ta,Xatirchi tumanida esa 91 ta maktablar faoliyat kõrsatib kelmoqda.Õquvchilar soni 2021-2022 õquv yili hisobiga kõra Navoiy viloyatida183734 nafarni tashkil etgan **[4;2].**

Salohiyatli pedagog xodimlar soni 20567nafarni tashkil etgan.Ushbu pedagogik xodimlarning salohiyati buyicha tahlil qiladigan bõlsak:

3630 nafar õqituvchilar-oliy toifali 16%

521 nafar õqituvchilar-I-toifali 24,5%

545 nafar õqituvchilar -II-toifali 26%

5401 nafar õqituvchilar- mutaxassislar

Bugun viloyatimiz miqyosida xorijiy sertifikatlarga ega õqituvchi-pedagoglar soni ham oshmoqda. Bu yõnalish buyicha tumanlar kesimida xorijiy sertifikatlarga ega xodimlar soni:

1-õrin Navbahor tumanida 92,4%

2-õrin Uchquduq tumani 92,2%

3- õrin Zarafshon shahri 91%

Salohiyatli pedagog xodimlar sonining kõpligi,navoiylik yoshlarning ta'lim olishining sifatli va yuqori darajada tashkil etishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda Navoiylik yoshlar oliy ta'lim muassasalariga kirish test jarayonlari va bakalavr darajasiga erishish salohiyati buyicha respublikada yuqori õrinlarda kelmoqda.Xususan,2022-yil oliy ta'limga kirish test jarayonlarida respublika miqyosida 2-õrinni egallab,viloyat hududida navoiylik yoshlarning yana bir karra bilimga chanqoq ekanligini isbotlab berdi **[5].**

Xulosa qilib aytadigan bõlsak,bugun Navoiylik yoshlar bilimga chanqoq va kelajakka intilib yashaydigan yoshlardir.

Bugun yurtimizda yoshlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash,ularning õqishi,mehnat qilishi,bilim olishi va qobiliyatini namoyon etishi uchun barcha sharoitlar yaratilmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bir fikrini eslatib õtish joiz:«Eng katta boylik-bu aql-zakovat va ilm,eng katta qashshoqlik-bu bilimsizlikdir».Chindan ham Yangi Õzbekistonni faqatgina bilimli va bunyodkor yoshlarimiz bilan birgalikda barpo etamiz.

Berilayotgan islohotlardan tuğri foydalanib,bor kuchimiz bilan harakat qilsak,birgina ta'lim sohasida balki sport,ishlabchiqarish,tadbirkorlik,hunarmandchilik,temirchilik va boshqa sohalarda ham dunyo tan oladigan darajaga albatta erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar rõyxati:

1.Oliy ta’lim : istiqbolli islohotlar – NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI.http://nspi.uz/?p=15747.joriy arxiv.

2. 2022-yil 20-dekabrda Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O’zbekiston xalqiga qilgan murojaatnomasi

3.Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining rasmiy kanali.https://t.me/Navoiy_vtrk

4.1.2.https://navstat.uz/uz/48-rasmiy-statistika

5.Navoiy viloyati teleradiokompaniyasining rasmiy kanali.https://t.me/Navoiy_vtrk.